XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 28 - dekabr VI-76-190-12-0-K/23 Xorazm viloyati hokimligi

Xorazm viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10354-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq Xorazm viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 2 879,0 mlrd. so‘m, xarajatlari 4 082,8 mlrd. so‘m prognoz qilinganligi hamda Respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 1 203,8 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Xorazm viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga, 2024-yil uchun viloyat mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini

taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman (shahar)lar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024-yil uchun viloyat byudjetidan tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman (shahar) mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat‘i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 18 395,8 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman (shahar)lar byudjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (bundan tuman (shahar)lar byudjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. Viloyat, tuman (shahar)lar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar)lar Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman (shahar)lar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlari va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imi, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

d) 4-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat byudjeti hamda tuman (shahar)lar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzin, dizel yonilg‘isi va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

11. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat viloyatlar va tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Choraklar yakunlari bo‘yicha ushbu qonunning 4-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmagan taqdirda, viloyat hokimligi Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish bilan birga tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan so‘rov bilan murojaat qiladi hamda mazkur taklif Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Bunda viloyat mahalliy byudjetlarining tegishli chorakdagi mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli mavjud bo‘lmagan byudjet daromadlari turlarining prognoz ko‘rsatkichlari aniqlashtiriladi hamda ushbu summa boshqa daromad manbalari yoki respublika byudjeti hisobidan qoplanadi.

Tuman (shahar)lar hokimliklari ham viloyat hokimligiga xuddi shunday tartibda murojaat qiladi.

Quyidagilar tegishlicha viloyat byudjeti va tuman (shahar)lar byudjetlaridan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini

saqlash xarajatlari;

Sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar.

Quyidagilar viloyat byudjetidan moliyalashtiriladi:

viloyatning umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, sog‘liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta‘mirlash va jihozlash, shuningdek, sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta‘mirlash hamda ta‘mirlash ishlariga doir xarajatlar;

kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

12. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Achilov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) tuman (shahar)lar hokimliklari va mas‘ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas‘uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta‘minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratsin.

13. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarning o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta‘minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e‘tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (R.O‘rozboyev) 2024-yil uchun yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini ta‘minlasin.

15. Viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish Xorazm mintaqaviy inspeksiyasi (R.Jabborov) hamda tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik”

xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (M.Babatayev) viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

17. Viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (Z.Ollaquliyev), tuman (shahar)lar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlar hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov), Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi viloyat hududiy boshqarmasi (U.Qalandarov) ga:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

19. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Raximov), viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi

bo‘yicha dividendlarning 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta‘minlasin.

20. Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi (D.Abdukarimov) tuman (shahar)lar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarning byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

21. Chapqirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Toirov) va viloyat soliq boshqarmasi (Sh.Saidov) tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning to‘liq hisoblanishi hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olinishini ta‘minlasin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste‘mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratilsin.

22. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (R.Sultanxodjayev), viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (M.Xudoyberganov), viloyat adliya boshqarmasi (N.Jumaniyazov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

23. Viloyat davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi maktabgacha va maktab ta‘limi hamda sog‘liqni saqlash boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

byudjet intizomiga qat‘iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisobotini har chorakda eshitib borsin.

24. Viloyat mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya va xalq deputatlari viloyat

Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etishi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas‘ul etib belgilansin.

25. Viloyat, tuman (shahar)lar hokimliklari:

Tuman (shahar) byudjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, viloyat, tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman (shahar) hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas‘ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta‘mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

26. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Achilov, xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, tuman (shahar)lar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari

bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27. Viloyat hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma‘lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta‘minlasin.

28. Mazkur qaror “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalarida rasmiy e‘lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi E.Babajanov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **J.Raximov**

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-76-190-12-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Xorazm viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	2025-yil uchun mo‘ljal	2026-yil uchun mo‘ljal
1	**Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘mda**	**44 805,8**	**51 905,6**	**60 205,6**
2	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	105,2	105,3	105,4
3	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	x	x	x
4	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	106,9	107,2	107,5
5	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,7	103,8	104,0
6	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	105,8	106,2	106,5

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-76-190-12-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Xorazm viloyatining viloyat mahalliy byudjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**1 620 561 300,0**
1	Foyda solig‘i	289 879 000,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)	870 602 300,0
4	Aksiz solig‘i, jami	105 252 000,0
	shu jumladan:	
	- benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*105 252 000,0*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	37 369 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
11	Qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari)	111 871 000,0
12	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar	80 080 000,0
13	Davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar	32 900 000,0
14	O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	2 043 000,0
15	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan tashqari)	90 565 000,0
17	Boshqa tushumlar	

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-76-190-12-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
Viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar jami		**3 061 763 672,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 487 905 315,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	0,0
	fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash	6 500 000,0
	Advokatlik xizmati xarajati	1 100 000,0
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish	38 035 728,0
	Prezident ta’lim muassasalari qurish uchun jalb etilgan qarz mablag‘larini qaytarish xarajatlari	0,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	324 437 500,0
	Xorazm viloyati shahar va tumanlarning byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari	1 203 785 129,0
1	**Xorazm viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**553 194 444,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	302 794 444,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	250 400 000,0
2	**Prezident ta’lim muassasalari agentligining Xorazm viloyati bo‘limi tizimidagi muassasalar**	**78 201 972,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	78 201 972,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalarni rivojlantirish agentligining Xorazm viloyati boshqarmasi**	**85 165 186,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	85 165 186,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
4	**Xorazm viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**575 939 555,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	529 339 555,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	46 600 000,0
6	**Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasi**	**57 349 521,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	57 349 521,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7	**Viloyat yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi**	**100 893 362,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	100 893 362,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8	**Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**25 673 704,5**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	25 673 704,5
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9	**O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Xorazm viloyati bo‘limi**	**80 404 074,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	52 966 574,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	27 437 500,0
10	**Xorazm viloyati irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**29 614 917,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	29 614 917,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11	**Xorazm viloyati transport boshqarmasi**	**3 122 643,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 122 643,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12	**Xorazm viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining hududiy boshqarmasi**	**9 558 857,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 558 857,0

	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13	**Xorazm viloyati turizm boshqarmasi**	**16 504 669,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	16 504 669,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
14	**Xorazm viloyati O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi**	**4 361 034,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 361 034,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
15	**Xorazm viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi**	**8 945 583,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 945 583,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Xorazm viloyati boshqarmasi**	**1 316 709,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 316 709,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17	**Xorazm viloyati davlat aktivlarini boshqarish agentligi**	**1 586 602,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 586 602,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18	**Xorazm viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**5 080 380,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 080 380,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19	**Xorazm viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**17 890 868,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 890 868,0
	shundan:	

	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
20	**Xorazm viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshkarmasi**	**10 784 534,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 784 534,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
21	**Xorazm viloyati adliya boshqarmasi**	**8 915 626,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 915 626,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22	**Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi**	**2 253 790,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 253 790,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
23	**Xorazm viloyati hokimligi**	**37 742 754,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	37 742 754,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
24	**Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi, Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi Xorazm viloyati boshqarmasi**	**69 018 942,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	30 983 214,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash	0,0
	advakatlik xizmati xarajati	0,0
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish	38 035 728,0
	Prezident ta’lim muassasalari qurish uchun jalb etilgan qarz mablag‘larini qaytarish xarajatlari	0,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
	Xorazm viloyati shahar va tumanlari mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	0,0
25	**Xorazm viloyati oila va xotin-qizlar boshqarmasi**	**1 274 131,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 274 131,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
26	**Xalq deputatlari viloyat Kengashi**	**548 664,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	548 664,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
27	**Xorazm viloyati saylov komissiyasi**	**86 358,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	86 358,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
28	**Xorazm viloyati O‘zarxiv boshqarmasi**	**3 166 918,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 166 918,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
29	**Xorazm viloyati ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**2 283 934,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 283 934,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
30	**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Xorazm viloyati boshqarmasi**	**2 992 365,5**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 992 365,5
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
31	**O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi**	**22 282 803,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	22 282 803,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
32	**Uzbekiston Respublikasi Pillachilik va korakulchilik rivojlantirish qo‘mitasining Xorazm viloyati hududiy bo‘limi**	**182 792,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	182 792,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
33	**Boshqa tashkilotlar**	**34 040 851,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	34 040 851,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-76-190-12-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Urganch shahri	100	10	100			100	100	100	100	100	100
2	Bog‘ot tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
3	Gurlan tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
4	Qo‘shko‘pir tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
5	Urganch tumani	100	20	100		100	100	100	100	100	100	100
6	Hazorasp tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
7	Xonqa tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
8	Shovot tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
9	Yangiariq tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
10	Yangibozor tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
11	Xiva tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
12	Xiva shahri	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
13	Tuproqqal’a tumani	100	10	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-76-190-12-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

Mahalliy byudjetlarning 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad***	**Xarajat**
JAMI	**2 879 027 000,0**	**4 082 812 129,0**
Viloyat byudjeti	1 620 561 300,0	1 857 978 543,0
Urganch shahri	159 845 800,0	201 362 681,0
Bog‘ot tumani	97 579 000,0	187 710 682,0
Gurlan tumani	99 269 000,0	187 975 216,0
Qo‘shko‘pir tumani	107 499 500,0	197 539 757,0
Urganch tumani	101 414 200,0	191 708 306,0
Hazorasp tumani	99 249 500,0	191 229 225,0
Xonqa tumani	119 964 000,0	197 493 018,0
Shovot tumani	113 886 000,0	204 844 046,0
Yangiariq tumani	71 577 000,0	151 615 703,0
Yangibozor tumani	56 709 500,0	128 484 905,0
Xiva tumani	89 773 500,0	179 924 699,0
Xiva shahri	71 752 500,0	107 524 202,0
Tuproqqal’a tumani	69 946 200,0	97 421 146,0

*tamaki, alkogol mahsulotalri, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni hisobga olmagan holda

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-76-190-12-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2024-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	**Shahar va tumanlar**	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	***shundan, aksiz solig‘i tushumlari xisobidan ajratilgan mablaglar****
JAMI		**1 203 785 129,0**	**337 798 439,0**
	shundan		
1	Viloyat byudjeti	237 417 243,0	0,0
2	Urganch shahri	41 516 881,0	26 050 550,0
3	Bog‘ot tumani	90 131 682,0	29 774 505,0
4	Gurlan tumani	88 706 216,0	26 627 967,0
5	Qo‘shko‘pir tumani	90 040 257,0	30 835 543,0
6	Urganch tumani	90 294 106,0	36 102 872,0
7	Hazorasp tumani	91 979 725,0	34 866 408,0
8	Xonqa tumani	77 529 018,0	33 594 910,0
9	Shovot tumani	90 958 046,0	30 530 003,0
10	Yangiariq tumani	80 038 703,0	20 844 038,0
11	Yangibozor tumani	71 775 405,0	15 660 909,0
12	Xiva tumani	90 151 199,0	26 180 321,0
13	Xiva shahri	35 771 702,0	16 724 175,0
14	Tuproqqal’a tumani	27 474 946,0	10 006 238,0

*tamaki, alkogol mahsulotalri, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-76-190-12-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

Viloyat, shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Shahar va tumanlar**	**Miqdor**
JAMI		**19 500 000,0**
	shundan	
1	Viloyat byudjeti	8 791 000,0
2	Urganch shahri	945 000,0
3	Bog‘ot tumani	870 000,0
4	Gurlan tumani	882 000,0
5	Qo‘shko‘pir tumani	914 000,0
6	Urganch tumani	985 000,0
7	Hazorasp tumani	941 000,0
8	Xonqa tumani	833 000,0
9	Shovot tumani	921 000,0
10	Yangiariq tumani	766 000,0
11	Yangibozor tumani	588 000,0
12	Xiva tumani	977 000,0
13	Xiva shahri	606 000,0
14	Tuproqqal’a tumani	481 000,0